

KIBERHUQUQ EVOLYUTSIYASI: RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA MILLIY HUQUQ TIZIMLARIDA INSTITUTSIONAL O'RNI

Nazarbek Abdixoliqov

“Cyber University” davlat universiteti,
Huquq va Biznes fakulteti,
yurisprudensiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annostatsiya: ushbu maqolada kiberhuquqning evolyutsiyasi, rivojlanish bosqichlari va milliy huquq tizimida tutgan institutsional o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – kiberhuquq rivojlanishini tarixiy bosqichlarga ajratish va uning O'zbekiston huquq tizimidagi o'rnini nazariy jihatdan aniqlash. Metodologik asos sifatida qiyosiy-huquqiy, tarixiy va tizimli tahlil usullari qo'llanilgan. Tadqiqot natijasida kiberhuquqning uch asosiy bosqichi: shakllanish (1990-2000), institutsionalizatsiya (2000-2015) va integrasiya (2015 – hozirgacha) bosqichlari belgilandi. Shuningdek, kiberhuquqning hozirgi bosqichda kompleks huquq instituti sifatida shakllanganligi, ammo mustaqil huquq tarmog'i darajasiga hali yetmaganligi asoslandi. O'zbekiston milliy modelining tahlili shuni ko'rsatdiki, kiberhuquq sohasida qator qonunlar qabul qilingan bo'lsa-da, tizimli kodifikatsiya va yagona prinsiplar tizimi hali shakllanmagan. Xulosada kiberhuquqning kelajakda mustaqil tarmoqqa aylanishi uchun Kiberhuquq kodeksini qabul qilish, yagona prinsiplar tizimini ishlab chiqish va ilmiy maktabni rivojlantirish zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: kiberhuquq, evolyutsiya, rivojlanish bosqichlari, huquq tizimi, institutsional o'rin, O'zbekiston, kiberjinoiyat, raqamli suverenitet, kodifikatsiya

Annotation: this article analyzes the evolution of cyberlaw, its stages of development, and its institutional position within the national legal system. The aim of the study is to identify the historical stages of cyberlaw evolution and to determine its position in the legal system of Uzbekistan through theoretical analysis. The methodological framework includes comparative-legal, historical, and systemic analysis methods. The results identify three main stages of cyberlaw development: formation (1990-2000), institutionalization (2000-2015), and integration (2015 – present). It is substantiated that cyberlaw has currently formed as a complex legal institution but has not yet reached the level of an independent branch of law. The analysis of the Uzbek national model demonstrates that although a



number of laws have been adopted in the field of cyberlaw, systematic codification and a unified system of principles have not yet been formed. The conclusion emphasizes that for cyberlaw to become an independent branch of law in the future, the adoption of a Cyberlaw Code, the development of a unified system of principles, and the advancement of an academic school are necessary.

Keywords: *cyberlaw, evolution, stages of development, legal system, institutional position, Uzbekistan, cybercrime, digital sovereignty, codification.*

Kirish

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda [1]. Internet, sun'iy intellekt, blockchain va boshqa axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi huquqiy munosabatlarning yangi turlarini vujudga keltirmoqda [2]. Bu jarayonda kiberjinoyatlar sonining ortishi, shaxsiy ma'lumotlarning ruxsatsiz tarqalishi, transchegaraviy huquqbuzarliklar va raqamli suverenitet masalalari huquq tizimi oldiga yangi talablar qo'yimoqda [3]. "Kiberhuquq" (cyberlaw) tushunchasi XX asrning 90-yillarida internetning ommalashuvi bilan paydo bo'lgan [4]. Dastlabki tadqiqotlar asosan AQSH va Yevropa mamlakatlarida olib borilgan bo'lsa, keyingi yillarda bu sohaga global qiziqish orth bormoqda [5]. Biroq, kiberhuquqning huquq tizimidagi o'rni to'g'risida hali yakdil ilmiy pozitsiya shakllanmagan. Ba'zi olimlar kiberhuquqni mustaqil huquq tarmog'i deb hisoblasa [6], boshqalar uni fuqarolik, jinoyat yoki ma'muriy huquq tarkibidagi kompleks institut sifatida talqin qiladi [7]. O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda kiberhuquq sohasida muhim qonunchilik o'zgarishlari amalga oshirildi. "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun (2003), "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun (2021) hamda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi (2020) bu boradagi asosiy hujjatlardir [8]. Shu bilan birga, kiberhuquqning milliy huquq tizimidagi o'rnini nazariy jihatdan tahlil qilish bo'yicha maxsus tadqiqotlar yetarli emas.

Muammoning qo'yilishi: Kiberhuquqning rivojlanish bosqichlari ilmiy jihatdan tizimlashtirilmagan va uning milliy huquq tizimida tutgan o'rnini aniq belgilanmagan.

Maqsad: Kiberhuquq evolyutsiyasini tarixiy bosqichlarga ajratish va uning O'zbekiston huquq tizimidagi institutsional o'rnini nazariy jihatdan aniqlash.



Vazifalar:

1. Kiberhuquq tushunchasining nazariy asoslarini ochib berish;
2. Kiberhuquq rivojlanishining asosiy bosqichlarini belgilash;
3. Kiberhuquqning huquq tizimidagi o'rnini tahlil qilish mezonlarini ishlab chiqish;
4. O'zbekiston milliy modelini tahlil qilish;
5. Kiberhuquqning kelajakda mustaqil tarmoq bo'lish istiqbollarini asoslash.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot kiberhuquqning evolyutsiyasi va uning O'zbekiston milliy huquq tizimidagi o'rnini nazariy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, quyidagi usullar asosida amalga oshirildi.

1. Qiyosiy-huquqiy usul. Ushbu usul yordamida O'zbekiston Respublikasining kiberhuquq sohasidagi qonun hujjatlari tahlil qilindi. Jumladan, “Axborotlashtirish to'g'risida”gi Qonun (2003), “Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonun (2021), Jinoyat kodeksining kiberjinoyatlarga oid moddalar va “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi (2020) o'zaro qiyoslandi [1, 2, 3, 4, 8].

2. Tarixiy usul. Kiberhuquqning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlarini xronologik ketma-ketlikda o'rganish uchun qo'llanildi. Ushbu usul asosida 1990-yildan 2026-yilgacha bo'lgan davr uch bosqichga ajratildi: I bosqich (1990-2000) – shakllanish davri; II bosqich (2000-2015) – institutsionalizatsiya davri; III bosqich (2015 – hozirgacha) – integrasiya davri [5].

3. Tizimli tahlil usuli. Kiberhuquqning huquq tizimidagi o'rnini aniqlash uchun quyidagi mezonlar bo'yicha tahlil qilindi: mustaqil predmet, mustaqil usul, o'ziga xos prinsiplar, alohida manbalar tizimi va kodifikatsiya darajasi [7].

4. Normativ-huquqiy tahlil usuli. O'zbekiston Respublikasining 2003-2025 yillar oralig'ida qabul qilingan qonun va qarorlari tahlil qilindi [2, 3, 8].

5. Mantqiy usul. Maqolaning xulosalari va takliflarini ishlab chiqishda deduksiya va induksiya usullaridan foydalanildi [6].

Natijalar. Tadqiqot davomida kiberhuquqning rivojlanish bosqichlari, uning huquq tizimidagi o'rni va O'zbekiston milliy modelining xususiyatlari bo'yicha quyidagi natijalarga erishildi.

1. Kiberhuquq rivojlanishining bosqichlari

Tarixiy usul asosida olib borilgan tahlil natijasida kiberhuquq rivojlanishining uch asosiy bosqichi aniqlandi:



I bosqich (1990-2000) – shakllanish davri. Internetning ommalashuvi va dastlabki kiberjinoyatlarning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi.

II bosqich (2000-2015) – institutsionalizatsiya davri. Budapesht konvensiyasi (2001) va boshqa xalqaro hujjatlarning qabul qilinishi bilan belgilanadi.

III bosqich (2015 – hozirgacha) – integrasiya davri. Sun'iy intellekt, blockchain va transchegaraviy jinoyatlar bilan bog'liq yangi huquqiy muammolar yuzaga kelgan davr [5].

2. Kiberhuquqning huquq tizimidagi o'rni

Tizimli tahlil usuli asosida kiberhuquqning huquq tizimidagi o'rni quyidagi mezonlar bo'yicha baholandi [7]:

Birinchi mezon – mustaqil predmet. Kiberhuquq axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Bu predmet an'anaviy huquq tarmoqlari predmetidan farq qiladi.

Ikkinchi mezon – mustaqil usul. Kiberhuquqda imperativ va dispozitiv usullar uyg'unlashgan holda qo'llaniladi.

Uchinchi mezon – o'ziga xos prinsiplar. Raqamli suverenitet, shaxsiy daxlsizlik, ma'lumotlar erkinligi va xavfsizlik muvozanati kabi prinsiplar mavjud.

To'rtinchi mezon – alohida manbalar tizimi. Kiberhuquqning manbalariga qonunlar, xalqaro shartnomalar va sud amaliyoti kiradi.

Beshinchi mezon – kodifikatsiya darajasi. Hozirgi kunda kiberhuquq to'liq kodifikatsiya qilinmagan, u turli huquq tarmoqlari doirasida tartibga solinmoqda.

Tahlil natijalariga ko'ra, kiberhuquq hozirgi bosqichda kompleks huquq instituti sifatida shakllangan, ammo mustaqil huquq tarmog'i darajasiga hali yetmagan.

3. O'zbekiston milliy modeli tahlili

Normativ-huquqiy tahlil usuli asosida O'zbekiston Respublikasining kiberhuquq sohasidagi qonunchiligi o'rganildi [1, 2, 3, 8].

O'zbekistonda kiberhuquq sohasida quyidagi asosiy hujjatlar qabul qilingan:

“Axborotlashtirish to'g'risida”gi Qonun (2003) – kiberhuquqning dastlabki asoslarini belgilagan.

“Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonun (2021) – GDPR talablariga yaqinlashtirilgan.

Jinoyat kodeksining kiberjinoyatlarga oid moddalari (127, 128, 192, 193, 272-boblar).



“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi (2020) – raqamli transformatsiyaning asosiy yo‘nalishlarini belgilagan.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston kiberhuquq sohasida bir qator muhim qonunlarni qabul qilgan bo‘lsa-da, hali tizimli kodifikatsiya va yagona prinsiplar tizimi shakllanmagan. Kiberhuquq normalari turli huquq tarmoqlari (fuqarolik, jinoyat, ma‘muriy) doirasida tarqoq holda joylashgan.

4. Kiberhuquqning kelajakda mustaqil tarmoq bo‘lish istiqbollari

Olib borilgan tahlil asosida kiberhuquqning kelajakda mustaqil huquq tarmog‘iga aylanishi uchun quyidagi shartlar zarurligi aniqlandi:

Birinchidan, Kiberhuquq kodeksini yoki yagona tizimlashtirilgan qonun hujjatini qabul qilish.

Ikkinchidan, kiberhuquqning mustaqil prinsiplar tizimini ishlab chiqish va ilmiy asoslash.

Uchinchidan, oliy o‘quv yurtlarida “Kiberhuquq” fanini mustaqil o‘quv kursi sifatida joriy etish.

To‘rtinchidan, kiberhuquq sohasida ilmiy maktab va tadqiqot markazlarini rivojlantirish.

Kiberhuquqning mustaqil tarmoq sifatida tan olinishi 2035-2040 yillarga borib mumkin bo‘ladi, degan xulosaga kelindi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari kiberhuquqning rivojlanish bosqichlari, uning huquq tizimidagi o‘rni va O‘zbekiston milliy modelining xususiyatlari bo‘yicha muhim xulosalar chiqarish imkonini berdi. Quyida olingan natijalar mavjud ilmiy adabiyotlar bilan solishtirilib, tahlil qilinadi.

1. Kiberhuquq rivojlanish bosqichlari haqida

Tadqiqotda aniqlangan uch bosqich (shakllanish, institutsionalizatsiya, integrasiya) xalqaro tadqiqotchilarning qarashlari bilan mos keladi. Lessig [5] kiberhuquqning dastlabki davrini internetning erkin rivojlanish davri deb ta’riflagan bo‘lsa, Murray [6] institutsionalizatsiya bosqichini Budapesht konvensiyasi bilan bog‘laydi. O‘zbekiston misolida ham aynan shu bosqichlar kuzatiladi. Biroq, O‘zbekistonda III bosqichga xos bo‘lgan sun’iy intellekt va blockchain kabi masalalar bo‘yicha qonunchilik hali to‘liq shakllanmagan. Bu borada Yevropa Ittifoqining AI Act (2024) tajribasidan foydalanish tavsiya etiladi.

2. Kiberhuquqning huquq tizimidagi o‘rni haqida.

Tahlil natijalariga ko‘ra, kiberhuquq hozirgi bosqichda mustaqil huquq tarmog‘i emas, balki kompleks huquq instituti sifatida faoliyat yuritmoqda. Bu xulosa Reed [7] va Solove [8] ning pozitsiyasiga yaqin. Reed kiberhuquqni



“tarmoqlararo institut” deb hisoblasa, Solove uni “ma'lumotlar huquqi” doirasida o'rganadi. Biroq, tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, kiberhuquq mustaqil tarmoqqa aylanish uchun barcha zarur elementlarga (predmet, usul, prinsiplar) ega. Faqat kodifikatsiya va ilmiy maktabning yetishmasligi uni mustaqil tarmoq darajasiga ko'tarilishiga to'sqinlik qilmoqda.

3. Tadqiqot cheklovlari.

Ushbu tadqiqot quyidagi cheklovlarga ega. Birinchidan, tadqiqot faqat O'zbekiston milliy modeli bilan cheklangan bo'lib, boshqa mamlakatlar bilan keng qiyosiy tahlil o'tkazilmagan. Ikkinchidan, tadqiqotda asosan normativ-huquqiy hujjatlar va nazariy manbalardan foydalanilgan, empirik ma'lumotlar (so'rov, intervyu) qo'llanilmagan. Uchinchidan, kiberhuquqning ayrim tor sohalari (masalan, kriptoaktivlar huquqi) tadqiqot doirasidan chetda qolgan. Kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu cheklovlarni bartaraf etish maqsadga muvofiq.

Xulosa

Ushbu tadqiqotda kiberhuquqning evolyutsiyasi, rivojlanish bosqichlari va uning O'zbekiston milliy huquq tizimidagi institutsional o'rni nazariy jihatdan tahlil qilindi. Quyidagi asosiy xulosalarga kelindi.

Birinchi xulosa. Kiberhuquqning rivojlanishida uch asosiy bosqich mavjud: I bosqich (1990-2000) – shakllanish davri; II bosqich (2000-2015) – institutsionalizatsiya davri; III bosqich (2015 – hozirgacha) – integratsiya davri. Har bir bosqichda kiberhuquqning predmeti va tartibga solish doirasi kengayib borgan.

Ikkinchi xulosa. Kiberhuquq hozirgi bosqichda mustaqil huquq tarmog'i emas, balki kompleks huquq instituti sifatida shakllangan. U mustaqil predmet, usul, prinsiplar va manbalar tizimiga ega bo'lishiga qaramay, to'liq kodifikatsiya qilinmaganligi va ilmiy maktab yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli mustaqil tarmoq darajasiga hali ko'tarilmagan.

Uchinchi xulosa. O'zbekiston Respublikasi kiberhuquq sohasida “Axborotlashtirish to'g'risida”gi Qonun (2003), “Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonun (2021), Jinoyat kodeksining tegishli moddalari va “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi (2020) kabi muhim hujjatlarni qabul qilgan. Biroq, ushbu normalar turli huquq tarmoqlari doirasida tarqoq holda joylashgan bo'lib, tizimli kodifikatsiya va yagona prinsiplar tizimi hali shakllanmagan.

To'rtinchi xulosa. Kiberhuquqning kelajakda mustaqil huquq tarmog'iga aylanishi uchun quyidagi shartlar zarur: Kiberhuquq kodeksini qabul qilish;



mustaqil prinsiplar tizimini ishlab chiqish; oliy o‘quv yurtlarida “Kiberhuquq” fanini mustaqil kurs sifatida joriy etish; kiberhuquq sohasida ilmiy maktab va tadqiqot markazlarini rivojlantirish.

Beshinchi xulosa. Kiberhuquqning mustaqil tarmoq sifatida tan olinishi 2035-2040 yillarga borib mumkin bo‘ladi. Buning uchun davlat tomonidan qonunchilikni tizimlashtirish va ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash siyosati olib borilishi zarur

Amaliy tavsiyalar. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga mavjud kiberhuquq normalarini yagona tizimga keltirish bo‘yicha konsepsiya ishlab chiqish tavsiya etiladi. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga huquq fakultetlarida “Kiberhuquq” fanini tanlov yoki majburiy kurs sifatida joriy etish tavsiya etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiberjinoyatlar bo‘yicha javobgarlikni kuchaytiruvchi qonun loyihasini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga kiberjinoyatlarni aniqlash va tergov qilish bo‘yicha maxsus bo‘linmalarni tashkil etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida: PF-6079-son Farmon. – Toshkent, 2020. – 5 okt.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2003. – 11 dek. (o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).
3. O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2021. – 2 iyul.
4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent, 1994. (kiberjinoyatlarga oid moddalar: 127, 128, 192, 193, 272-boblar).
5. Lessig, L. Code: Version 2.0. – New York: Basic Books, 2006. – 410 b.
6. Murray, A. Information Technology Law: The Law and Society. – Oxford: Oxford University Press, 2016. – 680 b.
7. Reed, C. Making Laws for Cyberspace. – Oxford: Oxford University Press, 2012. – 256 b.
8. Solove, D. J. Understanding Privacy. – Cambridge: Harvard University Press, 2008. – 272 b.
9. Budapesht konvensiyasi (Kiberjinoyatchilik to‘g‘risidagi Konvensiya). – Budapesht, 2001. – 23 noyabr.



10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. PF-5341-son. – Toshkent, 2018. – 12 apr.

